Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320786

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

- korxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish zahiralari va yo'llarini aniqlash.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida sanoat korxonalaridagi holat tahlil qilinib yuqorida sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun belgilangan vazifalar takilif qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sergeev I.V. – Korxona iqtisodiyoti: Darslik / 2-nashr, qayta ishlangan. va qo'shimcha M.: Moliya va statistika, 2000 yil

2.Introduction to Microeconomics, E201 © Dr. David A. Dilts p238 , p90

3.Muminov N.G. Industrial iqtisodiyot: Darslik. I qism / T.: "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti, 2020., 261 bet.

4.Baxromov Azizbek Alisher o'g'li. (2023). Increasing the economic efficiency of textile industry enterprises through digital technologies. qo'qon universiteti xabarnomasi, 9(9), 144–146. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.856

5.Baxromov, A. (2023). Raqamli texnologiyalardan foydalanishning sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishiga ta'sirini tahlil qilish usullarini takomillashtirish. Muhandislik muammolari va innovatsiyalari, 1 (1), 54-60.

BUGUNGI KUNDA KORXONA SAMARADORLIGI VA BUXGALTERIYA HISOBI TAHLILINING AHAMIYATI

Chorshanbaev Umurzoq
Guliston davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi va moliya"kafedrasi o'qituvchisi
Ne'matova Muxlisa, Medetbayeva Zulxumor
Guliston davlat universiteti " Raqamli iqtisodiyot va innovasiyalar"fakulteti talabasi
umurzokchorshanbayev@gmail.com

Bugungi kunda korxona samaradorligi va buxgalteriya tahlili iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir korxona o'z resurslaridan samarali foydalanish orqali raqobatbardosh bo'lishga intiladi. Shu nuqtayi nazardan, samaradorlikni oshirish va moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish juda muhim. Moliyaviy ko'rsatkichlar asosida strategik qaror qabul qilish korxonaning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash va uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Hamda hozirgi paytda harajatlarni optimallashtirishning buxgalteriya vositalari har qachongidan ham muhimroq bo'lib, zamonaviy iqtisodiy muhitda korxonalar uchun bir qator strategik afzalliklarni taqdim etadi.

Korxona samaradorligida buxgalteriya hisobining tahlili kata ahamiyatga ega. Buxgalteriya tahlili orqali korxonaning raqobatbardoshlikni oshirish; samarador korxonalar bozorda o'z o'rnini mustahkamlaydi, xarajatlarni kamaytiradi va mahsulot sifatini oshiradi. Bu esa iste'molchilarni jalb qilishga yordam beradi. Resurslardan oqilona foydalanish; Tabiiy, moliyaviy va inson resurslaridan samarali foydalanish korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Innovatsiyalarni joriy etish; Samaradorlikni oshirish uchun korxonalar yangi texnologiyalarni va boshqaruv usullarini

Published: 23.12.2024

Cite this article: Chorshanbaev Umurzoq, Ne'matova Muxlisa, Medetbayeva Zulxumor (2024). Bugungi kunda korxona samaradorligi va buxgalteriya hisobi tahlilining ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320786

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

joriy qiladi, bu esa rivojlanishga xizmat qiladi. Korxona samaradorligida buxgalteriya tahlili bir necha sabablarga ko‘ra hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- Moliyaviy holatni baholash: Tahlil orqali korxonaning moliyaviy barqarorligi, daromadlari va xarajatlari aniqlanadi. Bu ma’lumotlar kelajak rejalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.
- Qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash: Rahbariyat moliyaviy tahlil natijalariga asoslanib, resurslarni qay tarzda taqsimlashni aniqlaydi.
- Risklarni boshqarish: Buxgalteriya tahlili orqali korxona ehtimoliy moliyaviy xavflarni aniqlaydi va ularga qarshi strategiyalar ishlab chiqadi.
- Davlat talablari va hisoboti: Buxgalteriya tahlili qonunchilik talablariga rioya qilish va davlat organlariga aniq hisobot berishda muhimdir.
- Investor ishonchi: Buxgalteriya hisobini aniq va puxta tahlil qilish investor ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Investorlar ongli qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy hisobotlarga tayanadilar va har qanday nomuvofiqliklar ishonchni yo‘qotishi va investitsiyalarning potentsial qaytarib olinishiga olib kelishi mumkin.
- Bozor raqobatbardoshligi: Raqobatbardosh bozorda moliyaviy ko‘rsatkichlar va buxgalteriya hisobi amaliyotidan ustun turish korxonalarga ustunlik berishi mumkin. Bu ularga bozor o‘zgarishlariga tezda javob berishga va kuchli pozitsiyani saqlab qolishga imkon beradi.
- Barqarorlik hisoboti: Barqarorlik hisobotiga oid qoidalar kuchayishi bilan korxonalar moliyaviy tahliliga ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini kiritishlari kerak. Bu tartibga solish talablariga javob berishga va korporativ obro‘sini oshirishga yordam beradi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida strategik qaror qabul qilish nima degani Strategik qarorlarni qabul qilish moliyaviy ko‘rsatkichlarga sezilarli darajada bog‘liq. Ushbu jarayon bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi: moliyaviy hisobot tahlili, benchmarking, muvozanatli ko‘rsatkichlar kartasi, investitsiya qarorlari, xavflarni boshqarish va umumiylik ko‘rsatkichlar. Ushbu moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalangan holda, barcha kompaniyalar o‘sishni rag‘batlantiradigan, samaradorlikni oshiradigan va raqobatbardosh mavqeini oshiradigan asosli strategik qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Korxonalarning samamradorligini oshirishda xarajatlarni optimallashtirishning buxgalteriya vositalari nima uchun kekak. Zamonaviy iqtisodiy muhitda korxonalar uchun bir qator strategik afzalliklarni taqdim etadi. Misol uchun korxona qilayotgan xarajatlarini taqsimlashga yordam beradi ya’ni faoliyatga asoslangan xarajat. Bu orqali aniq va tejamkor bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi, Resurs iste'moli hisobini olish yozdamida har bir korxona resurslardan foydalanish va xarajatlarni taqsimlashning kengroq ko‘rinishini ta'minlaydi. Xarajatlarni hisoblash uchun dasturiy ta'minot mahsulot narxini, ishlab chiqish xarajatlarini, ishlab chiqarish xarajatlarini va boshqalarni aniqlashda yordam beradi. Sikl xarajatlarini aniqlash orqali mahsulotning ishlab chiqarishdan tortib to foyda olishgacha bo‘lgan butun jarayondagi umumiy tannarxini baholaydi va kompaniyalarga xarajatlarni boshqarish bo‘yicha ko‘proq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Fikr-mulohaza:

Korxona samaradorkigida buxgalteriya hisobi tahlili iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek buxgalteriya hisobi va tahlili korxonaning real moliyaviy holatini ko‘rsatadi, korxona xarajatlari va daromadlarini kuzatish, ularni boshqarishga imkon yaratadi. Buxgalteriya hosobi yordamida maxsulot yoki xizmat narxini optimallashtirish va raqobatchilarga nisbatan ustunlikka erishish mumkin. Tahlil natijalari raxbarlarha qarorlarni to‘gri qabul qilishga ko‘maklashadi. To‘g‘ri yuritilgan buxgalteriya hisobi soliq

masalalarida xatolardan qochishga yordam beradi va davlat organlari bilan munosabatlarni osonlashtiradi. Bu esa korxonaning barqaror ishlashi uchun muhimdir. Buxgalteriya hisobi orqali olingan ma’lumotlar asosida korxona kelajakdagi faoliyatini rejalashtirishi, risklarni tahlil qilishi va imkoniyatlarni baholashi mumkin bo‘ladi.

Xulosa :

Xulosa qilib aytganda, korxona samaradorligi va buxgalteriya hisobi tahlilining o‘zaro bog‘liqligi moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik va uzoq muddatli muvaffaqiyatning poydevorini yaratadi. Zamonaviy iqtisodiyotda bu jarayonlarni samarali tashkil etish har bir korxona uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda korxona samaradorligi va buxgalteriya tahlili iqtisodiy faoliyatning poydevori hisoblanadi. Samaradorlikni oshirish korxonaga raqobatbardoshlikni saqlash, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsiyalarni joriy etishda yordam beradi. Shu bilan birga, buxgalteriya tahlili moliyaviy holatni to‘g‘ri baholash, qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash va risklarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Global iqtisodiyot va raqamlashtirish sharoitida ushbu jarayonlarning dolzarbligi ortib bormoqda. Shuning uchun korxonalar samaradorlik va moliyaviy tahlilni ustuvor vazifa sifatida ko‘rib, ularni doimiy ravishda takomillashtirishga e’tibor qaratishlari zarur. Bu esa korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

1. "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.13.04.2016 y.
2. Boboyev, A., Hamroyev, H. "Moliyaviy tahlil va boshqaruv hisobi". Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019.
3. Pavlova, L.N. "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil". Moskva: Infra-M, 2020.
4. Rahimov, I. "Korxona samaradorligi: metodlar va amaliyot". Ilmiy maqola, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2021-yil.
5. https://maaw.info /ArticleSummaries/ArtSumSharman2020.
6. www.iqtisodiyot.uz
7. www.mf.uz

HUDUDLAR KESIMIDA ELEKTR ENERGIYASI SARFINING OSHISHIGA OLIB KELADIGAN OMILLAR TAHLILI

Doliyev Shoxabbos Qulmurot o‘g‘li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi
E-mail:shokhabbos9109@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada hududlar kesimida elektr energiyasi sarfining oshishiga olib keladigan omillar va issiqxona gazlarning salbiy ta’sirlar tahlil qilingan. Hududlar kesimida elektr energiyasi sarfining oshishiga olib keladigan omillar sifatida aholi sonining o‘sishi, korxonalar sonining o‘sishi, tashkilotlar sonining o‘sishi, aholi turmush darajasining oshishi va mavsumiy omillar hamda elektr energiyasini uzatish linyalarda yo‘qotishlar ko‘rib chiqilgan.

Issiqxona gazlarning salbiy ta’sirlarga; -ekotizimlarga zarari-issiqxona gazlari hayvonlar va o‘simliklar yashash muhitini o‘zgartirishi, ko‘plab turlarni yo‘q bo‘lib ketish xavfiga olib kelashi; -sog‘liq muamolari-havo sifatining yomonlashuvi nafas olish yo‘llari kasalliklari va yurak-qon tomir tizimi muammolarini oshirishi aytib o‘tilgan.